



TALABA QIZLARNI OILAGA TAYYORLASHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Bozarboyeva Namunaxon Davronbek qizi

Andijon davlat universiteti

Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti

Umumiy psixologiya kafedrası o'qituvchisi

(19.00.00 psixologiya)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7161369>

ARTICLE INFO

Received: 25th September 2022

Accepted: 27th September 2022

Online: 01st October 2022

KEY WORDS

Ta'lim- tarbiya, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy muhit ta'siri, ota-ona va farzand o'rtasidagi muammolar..

ABSTRACT

Oliy ta'lim tizimida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning falsafiy-psixologik, ijtimoiy-psixologik va ruhiy-ma'naviy xususiyatlarini ko'rib chiqish va unga psixologik tomondan yondashish, Oliy ta'lim tizimida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda psixologik-ijtimoiy muhitning ahamiyati, talabalarning qay darajada oila qurishga tayyorligi, muammolari va psixologik yechimlari ko'rib chiqiladi.

Mustaqillikka qadar oilaviy hayotga tayyorlash muammosiga yetarli e'tibor berilmay, maktab oliy o'quv yurtlari o'quv rejalarida o'smir yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, kelajakda o'zlari ota-ona sifatida farzand tarbiyalashlari, oilada sog'lom psixologik muhit yaratish, sog'lom turmush tarzini barpo etish kabi juda ko'p masalalar sekin astalik bilan talaba yoshlarning ongiga singdirib kelinmoqda.

Yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlash muammosiga Respublikamizda mustaqillik yillaridagina har tomonlama e'tibor berilib, bunga oila bilan bir qatorda maktab, mahalla, o'quv yurtlari, jamoat tashkilotlari tomonidan har bir fuqaroning mas'ulligiga e'tibor qaratildi va oila muammosiga davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Ma'lumki, sog'lom oilaning asoslariga oilada er-xotinning o'zaro munosabati, ularning farzandlariga, farzandlarining ota-onalari, aka-uka, opa-singil va boshqa qarindoshlari, jamiyatga nisbatan burch va mas'uliyatlari kiradi. Aynan oilaviy hayotga

qadam qo'yish arafasida turganlar kimlar?: ular kolledj, litseyni tamomlab oliy o'quv yurtiga qadam qo'ygan yosh yigit va qizlar kiradi. Yoshlarning ko'pchiligi aynan talabalik yillarida yoki uning yakunida oila qurganliklari tufayli ham oila-nikoh munosabatlarida, oila a'zolari bilan muloqotda yuqori darajadagi ma'naviy-axloqiy va pedagogik - psixologik tayyorgarlik, turmush madaniyatiga ega bo'lishlari talab qilinadi. Kuzatishlarimiz natijasi shuni ko'rsatdiki, ko'pchilik talaba-yoshlar bunday munosabatga kirishishga hali tayyor emaslar.

Oliy o'quv yurtida ta'lim olayotgan talaba qizlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlash uchun avvalo ularning oilaviy muhitini va ota-ona, bobo- buvilarining oilaviy hayot haqida berilgan tarbiya va tushunchasini e'tiborga olish kerak. Hozirgi kunda yoshlarning juda ko'pi oilaviy hayotga o'zini tayyorman deb o'ylashib turmush qurishmoqda, natijada esa oilada arzimagan kelishmovchiliklar,



qiyinchiliklarga, moslasha olmasliklari oqibatida ajrimgacha borishmoqda. Mana shunday hali oila nimaligi bilmasdan hayotga yengil qarab oilani boqa olaman deb o'ylab yigitlarni ham, oilaga tayyorman deb turmushga chiqayotgan qizlarni ham oila qurishlaridan oldin ularni oilaga psixologik tomondan tayyorlash, ana o'sha oliy ta'limda faoliyat yuritayotgan pedagog-psixologlarni vazifasiga kiradi. Biz talaba qizlarni oilaviy hayotga qanday tayyorlaymiz? Ularga birinchi navbatda oilani muqaddasligi, oila hozir yoqib kegin yoqmadi deb tashlab ketadigan narsa emasligini, oilada urning, qaynona-qaynotaning o'ziga yarsha hurmati, o'rni borligini, arzimagan narsalardan janjal qilib turmush o'rtog'iga aytib ko'ngildan qolmasligini ta'kidlash lozim.

Bu masalada o'zbekiston olimlaridan G'.B. Shoumarov ham yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda asosiy e'tiborni sevgi-muhabbat, oila, uning xususiyatlari, oilaviy muammolar, ayniqsa, ajralish, bolalar o'limi, farzandsizlik sabablari, iqtisodiy-xo'jalik ishlarini yurita olmaslik, oilada tarbiya muammolari, oila a'zolarining kommunikativ vazifalari, bo'sh vaqtdan to'g'ri foydalana olmaslik, oilada er va xotinning biologik, psixologik, sotsial turmushi, axloqiy-psixologik muhit va unga ta'sir ta'sir etuvchi omillar, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar va ularning qonuniyatlari, jinsiy tarbiyaning ta'siri haqidagi masalalariga qaratadi.

Avvalo olim oila jamiyatning kichik negizi ekanligini, uni iqtisodiy-xo'jalik faoliyatiga tayyorlash muhimligini ko'rsatib o'tadi. Oilada sarf- xarajat qilishdan oldin har tomonlama o'ylab, oila a'zolarining ehtiyojidan kelib chiqqan holda, uy-ro'zg'or ishlarini hisobga olgan holda taqsimlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Oilada bolalarni

mehnatga qiziqtirish, uy ishlarini qilishni o'rgatish, yoshlarni oila qurgandan keyin ro'zg'or tebratishda iqtisodiy qiyinchiliklarni yengib o'tishga yordam berish kerakligini asosli dalillar bilan isbotlagan.

Talaba qizlarni oilaviy hayotga psixologik tayyorlash deganda avvalo talabalik yoshini hisobga olish kerak. Talabalik davri 17-22 yoshni o'z ichiga oladi. Bu qiz talaba yoki bu yigit talaba deganda moddiy va ma'naviy ishlab ishlab chiqarishda ijtimoiy hayotga va mutaxassislikka oid rollarni muayyan holda va maxsus dastur asosida bajarishga tayyorlanayotgan ijtimoiy guruh tushuniladi. Mazkur davr fuqarolikka va psixologik yetuklikka erishish jarayoni hisoblanadi. Chunki bu davrda talaba qizlar ijtimoiy muhitga moslashish, huqu va majburiyatlarini, o'zlarini burchlarini anglab borishadi.

Hozirgi kunda talaba qizlarni 1-, 2-kursligidanoq turmushga berib yuborishmoqda, vaholanki endigina 17-18 yoshga to'lgan yosh talaba qiz hayotning o'nqir, cho'nqirlariga, turli xil qiyinchiliklariga, qaynona-qaynotaning xizmatiga tayyor emasliklari tufayli ziddiyatli muammolarni keltirib chiqishmoqda. Eng achinarlisi o'zi hali bola bo'la turib farzandli bo'lishib farzandiga qanday qarashni bilishmasdan " hayotdan to'ydim", " bu hayotda yashash bunchalar qiyin", "hayot bunchalar shavqatsiz" degan turli xil gaplar bilan o'z hayotini izdan chiqarishmoqda, o'z joniga qasd qilishgacha borishmoqda.

Bunday bo'lishiga sababchilar kimlar? degan savolga faqatgina o'zini o'ylagan otalar sababchi deb aytish mumkin. Chunki hozirgi kundagi yosh otalar hali bolaligini yo'qotmagan, hayotni faqat yaxshi tomonini ko'rib yurgan farzandini erta



kundan turmushga berib, bobo, buvi bo'laman degan orzular bilan, farzandlariga hali hayotning qiyinchiliklariga qanday javob qaytarishni o'rgatmay turib ana o'sha talaba yoshidagi qizlarini umrini hazon bo'lishi sababchi bo'lishmoqda.

Biz avvalo talaba qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashdan oldin ularning ota-onalariga farzandining psixologik tomondan oilaga tayyor yoki tayyor emasliklari to'g'risida tushuncha berishimiz kerak. Sababi ota-ona farzandining aynan nimaga tayyor, nimaga tayyor emasligini yaxshi biladi, lekin farzandining aynan psixologik tomondan tayyor yoki tayyormasliklarini bilishmaydi.

17-19 yoshga to'lgan talaba qizlar o'z xulqi, hatti - harakatini boshqara olmaganligi, hayotiy tajriba yetishmasligi tufayli ko'p masalalarda xatoliklarga yo'l qo'yishlari, ehtiyotsizlik qilib qo'yishlari mumkin. Ularda o'z faoliyatlarini taxlil qilish, o'zlarini baholash, o'zlarini tanqid qilish kabilar yetishmaydi. Talabalik davrining oila qurishdagi eng maqbul yoshi 21-22 yosh hisoblanadi, chunki aynan ana o'sha yoshda qizlarning fiziologik imkoniyatlari yuksak darajada rivojlanadi. Inson a'zolarining tashqi ta'siriga javobi, qon bosimining optimal darajasi ortadi, qon kislorod bilan to'yinadi. Insonda o'quvlikning qulay imkoniyatlari paydo bo'ladi. O'quv axborotni qabul qilish, eslash va xotirada saqlab qolish qobiliyati shakllanadi. Ana shu davrdan insonda psixologik funksiyalarning o'sishi boshlanib, o'quvlik imkoniyatlari pasaymaydi. Oila qurganda ham, yangi oila a'zolarining qaysi biriga qanday muomila qilishni, qanday munosabatda bo'lishni yaxshi biladi, qiyinchiliklarga ham bardosh bera oladi, oilasida bo'layotgan muammolarni o'zgalarga aytmaydi, qanday hal qilish kerakligini chuqur o'ylaydi va

yechim topadi. Farzand tarbiyasiga ham mas'uliyat bilan yondashishadi. Talaba yoshdagi yigit qizlarga kimlar bilan qanday muomila qilish Oliy ta'lim muassassalarida o'rgatilib boriladi, talabaning asosiy vaqti tahsil olish va boshqa jamoat ishlarini bajarish bilan o'tadi. U dastlab o'qituvchilari, qolaversa tengdoshlari, maslakdoshlari, rahbarlar bilan muloqotga kirishadi. Talaba bilan qo'pol munosabatda bo'lgan shaxs uning qalbida og'ir iz qoldiradi. Samimiy muloqot sog'lom turmush tarzi, sog'lom muhitni paydo qiladi. Agar uning aksi bo'lsa, oilada ham, o'quv maskanida ham nosog'lom muhit vujudga keladi.

Jamoa orasida, turli tadbirlarda so'z chiqqanda ham so'zlashish madaniyatiga rioya etish insonning obro'sini oshiradi. Shuning uchun har bir kishi bilan so'zlashganda, uning so'zlariga quloq tutib, o'ylab gapirishi, kattalarning so'zlarini oxirigacha eshitishi madaniyatlik hisoblanadi. Bularning barchasi talabalarga ta'lim-tarbiya jarayonida tushuntirib boriladi va ular turli joy, vaziyatlarda har xil toifadagi odamlar bilan muloqot qilishni o'rganadilar

Xulosa qilib shuni aytmoqchimanki, talaba qizlarni oilaga tayyorlashning psixologik-ijtimoiy mexanizmlariga ya'ni, oiladagi muhitga alohida e'tibor berish kerak. Chunki insonning hayotidagi birinchi institut bu oila instituti hisoblanadi, oiladagi ta'lim tarbiya ana o'sha insonni jamiyatda qanday shaxs bo'lib shakllanishiga o'z xissasini qo'shadi. Oiladagi oila a'zolarining, oila to'g'risidagi bergan ta'lim-tarbiyasi talaba qizlarni kelajakda oilasini mustahkam bo'lishiga yoki aksincha qulab tushishiga muhim omil bo'lib xizmat qiladi.



References:

1. Shavkat Mirziyoev 2017-2021 Harakatlar Strategiyasi (2017)
2. Umedjanova Malika Luqmonovna “ Talabalrni milliy qadriyatlar ruhida oilaviy hayotga tayyorlash” monografiya Buxoro 2022
3. V.M. Karimova “oila psixologiyasi” T. 2017
4. Xidirova F. “Oilada qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash” –T.: 2007
5. Otavaliyeva U. «Bola tarbiyasida bog‘cha va oila hamkorligi» T.,
6. «O‘qituvchi» 1994 y.